



E CONF SERIES



International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices
Hosted online from Rome, Italy

Website: econfseries.com

27th February, 2025

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING NORMATIV-HUQUQIY ASOSLARI

Suyunov Jabbor Mahmudovich

QarDU Tayanch Doktoranti

Annotation.

Ushbu maqolada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning hozirgi kundagi ahamiyati, ular faoliyatini rivojlanishda xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribasidan foydalanish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Аннотация.

В данной статье разработаны научные предложения и рекомендации по актуальному значению малого бизнеса и частного предпринимательства, по использованию передового опыта зарубежных стран в развитии их деятельности.

Abstract.

This article develops scientific proposals and recommendations on the current importance of small business and private entrepreneurship, on the use of advanced experience of foreign countries in the development of their activities.

Kalit so'zlar: kichik biznes, tadbirkorlik, rivojlanish, iqtisodiy samaradorlik, tajriba, iqtisodiy faoliyat.

Ключевые слова: малый бизнес, предпринимательство, развитие, экономическая эффективность, опыт, экономическая деятельность.

Keywords: small business, entrepreneurship, development, economic efficiency, experience, Economic activity.



E CONF SERIES



International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices
Hosted online from Rome, Italy

Website: econfseries.com

27th February, 2025

O‘zbekiston qonunchiligidagi shu vaqtga qadar innovatsion faoliyat sohasidagi munosabatlar, innovatsiya va innovatsion faoliyat sohasidagi tushunchalar, ishtirokchilar tarkibi va ushbu jarayonda ularning o‘zaro munosabati, aprobatsiya mexanizmlarini samarali tashkil etish, ilmiy ishlanmalarni amaliyotga tadbiq etish va sanoatda o‘zlashtirishni tartibga soluvchi yagona qonun hujjatining mavjud emasligi O‘zbekiston Respublikasining “Innovatsion faoliyat to‘g’risida”gi Qonun loyihasini ishlab chiqish va qabul qilish zaruriyatini kun tartibiga qo‘ydi. Ushbu qonun 6 bob, 39 ta moddadan iborat bo‘lib, mazkur Qonunda quyidagilar innovatsion faoliyat sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari etib belgilangan:

- innovatsion rivojlantirishning huquqiy jihatdan tartibga solinishini ta’minlash;
- ustuvor yo‘nalishlarni belgilash;
- zarur shart-sharoitlar va infratuzilmani yaratish;
- innovatsion faoliyat subyektlarini davlat tomonidan qo’llab-quvvatlash va rag‘batlantirish;
- respublika, tarmoq va hududiy davlat dasturlarini ishlab chiqish hamda amalga oshirish;
- investitsiyalarni jalb etishga ko‘maklashish;
- davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish;
- kadrlarni tayyorlashni, qayta tayyorlashni va ularning malakasini oshirishni tashkil etish;
- xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

Innovatsion tadbirkorlikning rivojlanish zarurati quyidagi omillar bilan shartlanadi:

- iqtisodiy faoliyatning barcha sohalarida innovatsiyalarni qo’llashga ko‘maklashuvchi ishlab chiqarishning intensiv omili rolini oshirish;
- ishlab chiqish samaradorligini ko‘tarishda fanning muhim roli va yangi texnikani joriy etish;
- yaratish muddatlarini sezilarli qisqartirish zarurati, yangi texnikani o‘zlashtirish, ishlab chiqarishning texnik darajasini ko‘tarish, ixtirochi va ratsionalizatorlar ijodini ommaviy rivojlantirish zarurati;



E CONF SERIES



International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices
Hosted online from Rome, Italy

Website: econfseries.com

27th February, 2025

- natijalarning noaniqligi, tadqiqotlarning ko‘pvariantlili, tavakkalchilikning mavjudligi va salbiy natijalarga erishish mumkinligi bilan ifodalanuvchi ilmiy-texnikaviy ishlab chiqarish jarayonining o‘ziga xosligi;
- sarf-xarajat ortishi va yangi mahsulotni o‘zlashtirishda korxonalarining iqtisodiy ko‘rsatkichlari pasayishida; texnika va texnologiyaning shiddatli ma’naviy eskirishida;
- yangi texnika va texnologiyani tezkor tatbiq etishning obyektiv zarurati bilan xarakterlanadi.



1-rasm. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiy mazmuni

Demak, yuqoridagi 1.1-rasmda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiy mazmuni asosan mulkchilik subyektiga va faoliyat xususiyatiga ko‘ra turlarga ajratilishi tasvirlangan. Jadvalda innovatsion tadbirkorlikning rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar keltirilgan (1-jadval).

Innovatsion tadbirkorlikning rivojlanishi iste’molchilar tomonidan innovatsiyalarga, milliy iqtisodiyotning ilmiy-texnik salohiyati rivojlanishi, tavakkal innovatsion faoliyatni moliyalashtiruvchi venchur firma va investorlar faoliyatiga bog‘liq.



E CONF SERIES



International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices
Hosted online from Rome, Italy

Website: econfseries.com

27th February, 2025

Innovatsion tadbirkorlik – g‘oya va ixtirolardan amaliy foydalanish orqali yangi tovar va texnologiyalar yaratish jarayoni hisoblanadi. Odatda, tadbirkorlik faoliyati zamirida yangi ehtiyojlarni qondirishga imkon beruvchi, yangi bozorni barpo etish, mahsulot yoki xizmatlar sohasiga yangilik kiritishdir. Innovatsiyalar – tadbirkorlikning maxsus quroli bo‘lib, bunda innovatsiyalar o‘z holicha emas, balki yangiliklarni yo‘naltirilgan tashkiliy izlash, ularga tadbirkorlik tarkiblarining muntazam qaratilganligidir. Tadbirkorlar fikrlashning innovatsion turini farqlaydi, innovatsion faoliyat esa o‘zida tadbirkorlikning alohida qurolini aks ettiradi. Aytish mumkinki, tadbirkor-novatorning vazifasi – ixtirolarni tatbiq etish bilan birga ishlab chiqarishni isloh qilishdir, yanada kengroq ma’noda yangi texnologik imkoniyatlarni qo‘llash orqali yangi mahsulotlarni ishlab chiqarish yoki tayyor mahsulot bozori ochilishi yoki yangi manbaning ochilishi evaziga eski mahsulotlarni yangi uslubda ishlab chiqarishdan iborat.

1-jadval. Innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirishga ko‘maklashuvchi omillar¹

Omillar guruhi	Omillar
Iqtisodiy, texnologik	Moliyaviy, moddiy-texnika vositalari zaxirasi, ilg‘or texnologiyalar; zarur xo‘jalik va ilmiy-texnik infratuzilma, innovatsion faoliyatni moliyalashtiruvchi davlat dasturi; innovatsion faoliyat uchun moddiy rag‘batlantirish; innovatsiyalarni tatbiq etish va ko‘paytirishning maqsadga muvofiqligini eksperimental tekshiruvi, tadbirkorlik tavakkalchilagini kamaytirish uchun yangilikning raqobatbardoshligini tekshirish
Siyosiy, huquqiy	Innovatsion faoliyatni rag‘batlantiruvchi qonunchilik chorralari, innovatsion faoliyatning davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi
Boshqaruv-tashkilot	Tashkiliy tarkiblarning egiluvchanligi, boshqaruvning demokratik uslubi, axborotning gorizontal yo‘nalishi, ustuvorligi o‘z-o‘zini rejalashtirish, tuzatishlar kiritish, nomarkazlashtirish, avtonomiya, muammoli, maqsadli guruhlarni shakllantirish, reinjiniring
Ijtimoiy-psixologik va madaniy	Ma’naviy rag‘batlantirish, jamoatchilikda tan olinish, o‘z-o‘zini namoyon etish imkoniyatini ta’minlash, ijodiy mehnat erkinligi. Mehnat jamoasida me’yoriy ruhiy muhit

¹ O‘zbekiston Respublikasining “Innovatsion faoliyat to‘g’risida”gi O‘RQ-630-son Qonuni. 2020 yil 24 iyul



E CONF SERIES



International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices
Hosted online from Rome, Italy

Website: econfseries.com

27th February, 2025

Innovatsion tadbirkorlik – yangilik yaratishning alohida ijodkorlik jarayonidir, xo‘jalik jarayoni, uning zamirida muntazam yangi imkoniyatlarni izlash, innovatsiyalarga yo‘naltirilganlik yotadi. Bu mavjud loyihani takomillashtirish yoki yangisini amalga oshirishdagi tavakkalchilikni, shu bilan birga, bu jarayonda yuzaga keladigan moliyaviy, ma’naviy va ijtimoiy javobgarlikni tadbirkor o‘z zimmasiga olishga tayyorligi bilan bog‘liq.

Texnologik innovatsiyalar – energiya, ishlab chiqarish salohiyatini yangilash jarayoni bo‘lib, tejash va mehnat unumдорligini oshirishga va energiya xomashyosi va boshqa resurslarni oshirishga qaratilgan, bu korxona foyda hajmini oshirishga imkon beradi. Texnika xavfsizligini takomillashtirish, atrofmuhitni muhofaza qilish tadbirlarini o‘tkazish, firma ichki axborot tizimlaridan samarali foydalanish imkoniyatini beradi. Ijtimoiy innovatsiyalar korxonaning ijtimoiy muhitini rejali yaxshilash jarayonidir. Bu turdagи innovatsiyani tatbiq etish bozorda ishchi kuchi imkoniyatlarini yanada kengaytiradi, tashkilot personalini qo‘yilgan maqsad sari safarbar etadi, korxonaning ijtimoiy majburiyatlarga nisbatan ishonchini mustahkamlaydi. Innovatsion jarayonni tashkil etish usuli asosida korxonada innovatsion tadbirkorlikning uch modelini alohida ko‘rsatish mumkin:

- 1) ichki tashkilotchilik asosida innovatsion tadbirkorlik, bunda innovatsiya firma ichida uning maxsus bo‘linmalari tomonidan innovatsion loyiha bo‘yicha ularning rejelashtirish va nazorat asosida o‘zaro harakatida yaratiladi.
- 2) shartnomalar yordamida tashqi tashkilot asosida innovatsion tadbirkorlik, bunda o‘zlashtirishga buyurtma, innovatsiya tarafdir tashkilotlar o‘rtasida joylashtiriladi.
- 3) vechurlar yordamida tashqi tashkilot asosida innovatsion tadbirkorlik, bunda firma innovatsion loyihaning tatbiqi uchun qo‘srimcha tomonlarning mablag‘larini jalg etuvchi shu’ba vechurlik firmalarini ta’sis etadi.

Ko‘p hollarda innovatsion tadbirkorlikning ikkinchi modeli foydalaniladi, ya’ni korxona yangiliklarni ishlab chiqishga buyurtma bermaydi, balki ularni o‘z kuchi bilan o‘zlashtiradi. Innovatsion tadbirkorlikning barcha turlari asosida mahsulot (tovar, xizmat) larning yangi turlarini tayyorlash, buyumlar yaratish, boyliklarni yaxshiliklarga yaratish va o‘zlashtirish yotadi. Bunday tadbirkorlikning asosiy va muhim qismi kelgusida iste’molchi va xaridorlarga yetkazib beriladigan ilmiytexnik mahsulot, tovar, ish, axborot, intellektual boylik yaratish va ishlab chiqarishdir.



E CONF SERIES



**International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices
Hosted online from Rome, Italy**

Website: econfseries.com

27th February, 2025

Fikrimizcha, mamlakatning raqobatbardoshligi alohida korxonalarning raqobatbardoshligi asosida rivojlanadi. Har bir korxona raqobatbardoshlik bilan ta'minlangan afzallikkarga erishish uchun o'z strategiyasini qo'llaydi. Biroq, muvaffaqiyatli kompaniyalarning evolyutsiyasi va rivojlanishi tabiat o'xshash bo'ladi, chunki kompaniyalar innovatsiyalarga asoslangan raqobatdosh ustunliklarni yaratadilar. Mamlakatimiz korxonalaridagi innovatsion jarayonlar kuchsizligining sababi quyidagi omillar ta'siridandir:

- sanoat sohasida ishlaydigan olimlar sonining kamligi, shu bilan birga, ishchi kuchida olimlar va tadqiqotchilar ulushining pastligi;
- yuqori texnologiyalarni patentlash sohasiga kirmaslik;
- ishlab chiqarish sektori va universitetlar o'rtaсидаги zaif hamkorlik;
- innovatsiyalarni rag'batlantrishning nisbatan muvaffaqiyatsizligi va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari faoliyati;
- biznesni boshlash uchun murakkab protseduralar; texnologik ta'lim sifatining yetarli emasligi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. H.O.Rahmonov. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ijtimoiy- iqtisodiy rivojlanishini ekonometrik modellashtirish (Buxoro viloyati misolida) iqt.f.d. diss. avtoref. –T.: 2008
2. S.S.G'ulomov. Tadbirkorlik va kichik biznes. - Т.: "O'qituvchi". 2002-32-б.
3. X.Abulqosimov. Xususiy kichik tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishining iqtisodiy muammolari. Т.: ТДИУ, 1998. – 6-б.
4. Y.Abdullayev, Karimov F. "Kichik biznes va tadbirkorlik asoslari".- Т.: "Mehnat". 2000. – 9-b.
5. Е.В. Глушенко, Тихонравов Ю.В. Основы предпринимательства. –М.: Алма-Матер, 2008. с. 16,17
6. Й.Шумпетер "Основы предпринимательства". М: Дело.2012 2-изд.стр.25-26
7. К. Маконнелл, С.Брю. "Экономикс". М:, Дело. 1999, 2008. стр.125-126